

“Turonbank” ATB Boshqaruvining

2026-yil “20” avgustdagi

“130”- son qarori bilan

“TASDIQLANGAN”

**“Turonbank” ATBda tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli kreditlar taqdim
etilishi asosida moliyalashtirilgan kredit loyihalarini samaradorligini baholash**

METODOLOGIYASI

Toshkent – 2026-yil

Mazkur metodologiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-dekabrda 784-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalar taqdim etilishini monitoring qilish, ularning samaradorligini baholash hamda asosiz olingan va maqsadsaiz foydalanilgan subsidiyalarni qaytarib olish tartibi to'g'risida"gi nizomga muvofiq, "Turonbank" ATB (keyingi o'rinlarda-Bank) tizimida tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli kreditlar taqdim etilishi asosida moliyalashtirilgan kredit loyihalarini samaradorligini baholash hamda maqsadsaiz foydalanilgan kreditlarni qaytarib olish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Metodologiyada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

vakolatli organ — kredit tavakkalchiligiga ega operatsiyalar bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan Bankning boshqaruv organlari, boshqa kollegial organlari, shu jumladan mas'ul xodimlar guruhi;

imtiyozli kredit — davlat dasturlari doirasida ajratiladigan imtiyozli kreditlar;

davlat dasturlari — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va hududlarga tashrifi davomida rasmiylashtirilgan bayonnomalar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari/bayonnomalari, Hukumat komissiyasining yig'ilish bayonlari/qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri topshiriqlarida nazarda tutilgan va moliyalashtirilishi Bank tomonidan ta'minlanadigan loyihalar;

kredit shartnomasi — Bank (bir taraf) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlar asosida pul mablag'lari (kredit) berish, qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatini o'z ichiga oluvchi shartnoma;

kredit ishtirokchilari — birgalikda qarz oluvchi, kafil, garovga qo'yuvchi, sug'urtalovchi;

maqsadsaiz foydalanilgan imtiyozli kreditlar — qonunchilik hujjatlari hamda tuzilgan shartnomalarga (bitimlarga) muvofiq ajratilgan kreditni boshqa maqsadlar uchun sarflash;

kredit monitoringi — tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan imtiyozli kredit va unga hisoblangan foizlar hamda boshqa moliyaviy to'lovlarning shartnomada belgilangan muddatlarda to'lanmaslik xatarini kamaytirish maqsadida, imtiyozli kredit ajratilgan vaqtdan boshlab, Bank oldidagi majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar olib boriladigan o'rganish va kuzatish jarayoni;

samaradorlik ko'rsatkichi — tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan imtiyozli kreditlar natijasida erishiladigan ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlar;

samaradorlikni baholash — iqtisodiy, moliyaviy (budjet) va ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda, tadbirkorlik subyektlarini ularga taqdim etiladigan imtiyozli kreditlar natijalarini taqqoslash tartib-taomillari.

2. Ushbu Metodologiyaning amal qilishi favqulodda holatlarda davlat va jamiyat ehtiyojlarini ta'minlash, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida, shuningdek xalqaro shartnomalar asosida tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

3. Bankning Kichik va o'rta biznes departamenti, Korporativ biznes departamenti hamda Davlat dasturlari bilan ishlash departamentlari mas'ul xodimlari tadbirkorlik subyektlari uchun bank kreditlari bo'yicha ma'lumotlarni (imtiyozlarni) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-dekabrda 784-sonli qaroriga asosan "subsidiya.mf.uz" platformasiga kiritib borishga mas'ul hisoblanadi.

2-bob. Tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan imtiyozli kreditlarni samaradorligini aniqlash uchun monitoringni amalga oshiruvchi tarkibiy bo'linmalar va ularning asosiy vazifa va majburiyatlari

4. Tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan imtiyozli kreditlarni samaradorligini aniqlash uchun monitoringni amalga oshirishga Bankning Monitoring va nazorat departamenti va Davlat dasturlari bilan ishlash departamenti (keyingi o'rinlarda — Mas'ul tarkibiy bo'linmalar) mas'ul hisoblanadi.

5. Mas'ul tarkibiy bo'linmalarining asosiy vazifalari va majburiyatlari:

— tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan imtiyozli kreditlarni qonunchilik hujjatlariga muvofiq maqsadli ishlatilganligini monitoring qilish;

— tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan imtiyozli kreditlarni monitoringini yuritish va samaradorligini baholash;

— imtiyozli kreditlardan maqsadsiz foydalangan tadbirkorlik subyektlarining ro'yxatini shakllantirish;

— maqsadsiz foydalanilgan imtiyozli kreditlarni undirish choralarini ko'rish yuzasidan bankning ichki qoidalariga muvofiq Muammoli aktivlar bilan ishlash departamentiga bildirishnoma kiritish;

— monitoring natijasi bo'yicha har yarim yillikda hisobot tayyorlash hamda vakolatli organga taqdim etish.

3-bob. Monitoring qilish tartibi

6. Bankning Monitoring va nazorat departamenti va Davlat dasturlari bilan ishlash departamentining mas'ul xodimlari tadbirkorlik subyektlariga bank tomonidan ajratilgan imtiyozli kreditlarni kredit shartnomasida kelishilgan maqsadda, belgilangan tartibda sarflanishi yuzasidan monitoring qiladi.

7. Kredit mablag'lari hisobidan yetkazib berilgan mahsulotlarning yoki bajarilgan ish, xizmatlarning miqdori, texnik va texnologik jihat va boshqa xususiyatlarini oldi-sotdi (import) shartnomada keltirilgan ma'lumotlarga mosligini o'rganish imkoniyati mavjud bo'lmagan hollarda, monitoring xodimlari taqdim etilgan hujjatlar asosida yetkazib berilgan mahsulotlarning yoki bajarilgan ish, xizmatlarning miqdori, texnik va texnologik jihat va boshqa xususiyatlari umumiy miqdorda mavjudligi yuzasidan dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

Bunda, sotib olingan mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlarning natural birligi bo'yicha to'liqligi va sifatliigi uchun tadbirkorlik subyektlari mas'ul hisoblanadi.

8. Monitoring xodimlari tomonidan maqsadli ishlatilish monitoringi o'tkazilgandan so'ng, taqdim etilgan kredit maqsadli ishlatilishiga oid hujjatlar va ma'lumotlar asosida monitoring maqsadli ishlatish dalolatnomasi rasmiylashtiradi.

Mazkur dalolatnoma monitoring xodimlari va tadbirkorlik subyektlari yoki uning vakolatli shaxsi tomonidan imzolanadi va muhrlanadi (muhr mavjud bo'lgan hollarda).

9. Kredit mablag'larini maqsadli ishlatilishini o'rganishda fotosuratlar (zaruriyatga qarab video tasvir) olinadi va dalolatnomaga ilova qilinadi.

10. Xavf darajasi past va o'rta bo'lgan (yashil va sariq toifadagi) Tadbirkorlik subyektlari uchun masofaviy monitoring — har 6 oyda bir marta o'tkaziladi.

11. Xavf darajasi yuqori bo'lgan (qizil toifadagi) Tadbirkorlik subyektlari uchun joyiga chiqqan holda monitoring — har 6 oyda kamida bir marta o'tkaziladi. Bunda:

- joyiga chiqqan holda monitoring faqat ish vaqtida, qarz oluvchini chiqish sanasidan kamida 3 (uch) ish kuni oldin yozma (yoki elektron) tarzda xabardor qilgan holda amalga oshiriladi;

- monitoring jarayoni tadbirkorlik subyektlarining operatsion jarayonini to'xtatishga yoki xodimlarning ish joylariga kirishini cheklashga olib kelmasligi lozim.

12. Kreditni maqsadsiz ishlatilganlik holatlari aniqlangan taqdirda tarkibiy bo'linmalar tomonidan qonunchilikda belgilangan choralardan birini qo'llash uchun tegishli takliflar berish, jumladan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan:

- kredit shartnomada belgilangan moliyaviy sanksiyalarni qo'llash;
- kreditni muddatidan oldin so'ndirish talabini qo'yish;
- sud va huquqni muhofaza qilish organlarga tadbirkorlik subyektlari tomonidan kelishuv shartlarini buzganligi oqibatida kredit va boshqa tegishli hujjatlar bilan murojaatlar qilish;

- tadbirkorlik subyektlari ajratilgan kreditni maqsadsiz sarflaganligi oqibatida kelajakda bankdan kredit olish imkoniyatini cheklash yuzasidan qonunchilikda belgilangan boshqa choralar ham ko'rilishi mumkin;

- aniqlangan holat bo'yicha tegishli mijoz bilan bevosita ishlovchi biznes bo'linmalar xodimlari tomonidan tadbirkorlik subyektlari va kafil korxona hamda garov mulklari egalari barta qilish choralarini ko'rish yuzasidan ogohlantirish xatlari taqdim qilinishi mumkin.

13. Tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan imtiyozli kreditlarni monitoringini amalga oshirishning to'liq tartibi "“Turonbank” ATB tizimida kredit va unga tenglashtirilgan aktivlar bo'yicha monitoring o'tkazish Tartibi” tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladi.

4-bob. Tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan imtiyozli kreditlarni samaradorlik ko'rsatkichlari va samaradorlikni baholash metodikasi

14. Tadbirkorlik sub'yektlariga taqdim etiladigan imtiyozli kreditlar natijasida ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlarga erishiladi.

ijtimoiy samaradorlik - ijtimoiy infratuzilma va tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish, uning ijtimoiy himoyasi va bandligini ta'minlash uchun qulay sharoitlar yaratilishini tasdiqlovchi imtiyozlar samaradorligi ko'rsatkichlaridan iborat bo'lib, quyidagilarni qamrab oladi:

- yaratilgan yangi ish o'rinlari soni;
- ish haqini oshirish, qo'shimcha mablag'larning yo'naltirilishi;
- ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslarni ish bilan ta'minlash;
- mehnat sharoitlari va mehnat muhofazasini yaxshilash;
- shartnomaga asosan yordam berilishida maqsad qilingan boshqa ijtimoiy ko'rsatkichlar;

iqtisodiy samaradorlik — tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan imtiyozli kreditlarning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'sirini baholash ko'rsatkichlaridan iborat bo'lib, quyidagilarni qamrab oladi:

- umumiy mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish hajmining oshishi;
- yangi turdagi mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish hajmining oshishi;
- mahsulotni (ishni, xizmatni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanmaning o'sish sur'ati;
- mahsulot (ish, xizmat) turining kengayishi;
- yangi kashfiyot, patent va sanoat namunalarini miqdoriy ko'rsatkichlarda joriy etish;
- yangi texnologiyalar, uskunalari va ishlab chiqarish quvvatlarini (ishlab chiqarish korxonalari uchun) miqdoriy ko'rsatkichlarda joriy etish;
- tadbirkorlik subyektlarining daromadining (foydasining) oshishi;

- mahsulot (ish, xizmat) tannarxining pasayishi;
- eksport hajmining oshishi;
- shartnomaga (bitimga) asosan yordam berilishida maqsad qilingan boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarning oshishi;

moliyaviy (budjet) samaradorlik — tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan imtiyozli kreditlarning ta'sirini baholash ko'rsatkichlaridan iborat bo'lib, quyidagilarni qamrab oladi:

- tadbirkorlik subyektning moliyaviy barqarorligi;
- sarmoyalarni jalb qilish imkoniyatining oshishi;
- investitsiyalar hajmining oshishi;
- budjetga tushgan soliq va bojxona to'lovlari hajmining oshishi.

Samaradorlik ko'rsatkichlarini baholashda davrlar va o'sish/kamayishni aniqlash tartibi:

Bazaviy davr: Imtiyozli kredit mablag'lari ajratilishidan oldingi oxirgi to'liq moliyaviy yoki hisobot davri (yangi tashkil etilgan subyektlar uchun biznes-rejada ko'rsatilgan boshlang'ich reja ko'rsatkichlari).

Hisobot davri: Imtiyozli kreditdan foydalanish boshlangandan so'ng, samaradorlikni monitoring qilish amaliyoti olib borilayotgan joriy davr (chorak, yarim yillik yoki yil).

O'sish yoki kamayishni aniqlash: Ko'rsatkichlar o'zgarishi hisobot davri ko'rsatkichlaridan bazaviy davr ko'rsatkichlarini chegirish orqali mutlaq qiymatda hamda ularning o'zaro nisbati asosida foiz o'zgarishi orqali aniqlanadi.

Yakuniy samaradorlikni hisoblash va baholash mezonlari:

Yakuniy samaradorlik tadbirkorlik subyekti tomonidan biznes-reja va kredit shartnomasida belgilangan ijtimoiy, iqtisodiy va moliyaviy maqsadli ko'rsatkichlarning (KPI) bajarilish darajasiga qarab tasniflanadi:

Yuqori iqtisodiy samarali: barcha yo'nalishlar bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarga 100% va undan yuqori darajada erishilganda;

Iqtisodiy samarali: maqsadli ko'rsatkichlarga 70% dan 100% gacha erishilganda;

O'rtacha iqtisodiy samarali: maqsadli ko'rsatkichlarga 50% dan 70% gacha erishilganda;

Samarasiz: maqsadli ko'rsatkichlarga erishish darajasi 50% dan past bo'lganda.

(Eslatma: Samarasiz deb topilgan loyihalar bo'yicha ushbu metodologiya 5-bobida belgilangan kreditni muddatidan oldin qaytarish shartlari qo'llanilishi ko'rib chiqiladi).

15. Tadbirkorlik subyektlarining (yuridik shaxslar) moliyaviy holatini baholash metodikasi:

Mazkur metodikada yuridik shaxslarning (byudjet va sug'urta tashkilotlari, tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlari bundan mustasno) moliyaviy holatini baholash

maqsadida likvidlilik koeffitsiyentlari, moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlar, kredit (qarz) yuki koeffitsiyentlar va rentabellik koeffitsiyentlari, shuningdek o'z aylanma mablag'larining mavjudligi kabi koeffitsiyentlar orqali ko'rib chiqiladi.

Kreditga layoqatlilikning asosiy ko'rsatkichlari quyidagi koeffitsiyentlardan iborat bo'ladi.

O'z aylanma mablag'larining mavjudligi (NSOS) = Xususiy kapital+Uzoq muddatli kredit va qarzar – Uzoq muddatli aktivlar

Chegaraviy qiymati: Natija 0 dan katta (ijobiy) bo'lishi talab etiladi.

Likvidlilik koeffitsiyentlari:

Joriy likvidlilik koeffitsiyenti (Current Ratio – CR) – bu korxonaning joriy aktivlari hisobidan qisqa muddatli (joriy) majburiyatlarini qoplash qobiliyatini ko'rsatadigan moliyaviy ko'rsatkichdir. Bu koeffitsiyent korxonaning likvidligini va moliyaviy barqarorligini baholashda keng qo'llaniladi va quyidagi tartibda aniqlanadi:

joriy aktivlar (390 satr Sh1) - muddati o'tgan debitor (211 satr Sh1) -
ta'sisчилarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi (290 satr Sh1)

$$CR = \frac{\text{-----}}{\text{joriy majburiyatlar (600 satr Sh1)}}$$

Chegaraviy qiymati: 1.2 dan katta yoki unga teng.

Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti (Equity Ratio – ER) – ushbu koeffitsiyent korxonaning o'z mablag'lari jami aktivlar summasiga nisbatan qanday bo'lishini ifodalaydi. Koeffitsiyent korxonaning kreditorlardan qanday darajada mustaqil ekanligini ko'rsatadi. Koeffitsiyent qiymati qanchalik kichik bo'lsa, shunchalik qarz manbalaridan moliyalashtirilganligini va uning moliyaviy barqarorligi shunchalik past bo'lishini anglatadi va quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$ER = \frac{\text{o'z mablag'lari manbalari (480 satr Sh1)}}{\text{-----}} \\ \text{jami aktivlar (400 satr Sh1)}$$

Chegaraviy qiymati: 0.2 dan katta yoki unga teng (o'z mablag'lari ishtiroki kamida 20% bo'lishi)

Qoplash koeffitsiyenti (Coverage Ratio – CovR) – ushbu koeffitsiyent joriy aktivlardan kelgusi davr xarajatlari, kechiktirilgan xarajatlar va muddati o'tgan debitor qarzdorliklar ayirmasining joriy majburiyatlarga nisbati sifatida hisoblanadi va quyidagi tartibda aniqlanadi:

joriy aktiv (390 satr Sh1) - muddati o'tgan debitor (211 satr Sh1) —
ta'sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi (290 satr Sh1) — kelgusi
davr xarajatlari (190 satr Sh1) - kechiktirilgan xarajat (200 satr Sh1)

$$\text{CovR} = \frac{\text{-----}}{\text{joriy majburiyatlar (600 satr Sh1)}}$$

Chegaraviy qiymati: 1.0 dan katta yoki unga teng.

Kredit (qarz) yuki koeffitsiyenti (Debt-to-Equity Ratio - DER) – mijozning qarz mablag'lariga qaramlik darajasini ko'rsatadi.

$\text{DER} = \text{Jami majburiyatlar (uzoq va qisqa muddatli kredit/qarzlar)} / \text{Xususiy kapital}$

Chegaraviy qiymati: 1.5 dan kichik yoki unga teng (qarz mablag'lari xususiy kapitaldan 1.5 barobardan oshib ketmasligi maqsadga muvofiq).

Rentabellik koeffitsiyentlari:

- a) **Aktivlar rentabelligi (ROA)** – jami aktivlarning daromad keltirish qobiliyatini baholaydi: $\text{ROA} = (\text{Sof foyda} / \text{Jami aktivlar}) * 100\%$

Chegaraviy qiymati: 0 dan katta (faoliyat zarar bilan ishlamasligi, ijobiy ko'rsatkich).

- b) **Xususiy kapital rentabelligi (ROE)** – kiritilgan o'z sarmoyasining foyda keltirish darajasini baholaydi: $\text{ROE} = (\text{Sof foyda} / \text{Xususiy kapital}) * 100\%$

Chegaraviy qiymati: Tarmoqning o'rtacha ko'rsatkichidan yoki Markaziy bankning amaldagi asosiy stavkasidan yuqori bo'lishi maqsadga muvofiq.

5-bob. Tadbirkorlik subyektlari tomonidan maqsadsiz foydalanilgan imtiyozli kreditlarni muddatidan oldin qaytarib olish

16. Tadbirkorlik subyektiga ajratilgan imtiyozli kreditlar maqsadli foydalanganligi yuzasidan doimiy monitoring olib boriladi.

17. Imtiyozli kreditlarni monitoring qilish, ularning samaradorligini baholash hamda maqsadsiz foydalanilgan imtiyozli kreditlarni qaytarib olish, amaldagi qonunchilik hujjatlari va Bankning ichki qoidalari asosida amalga oshiriladi.

18. Tadbirkorlik subyektiga ajratilgan imtiyozli kreditlar quyidagi hollarda muddatidan oldin undirib olish choralari ko'riladi:

tadbirkorlik subyekti tomonidan kredit shartnomasi (bitim) bo'yicha erishish lozim bo'lgan aniq maqsadli ko'rsatkichlar bajarilmaganda;
imtiyozli kredit mablag'laridan maqsadsiz foydalanilgani aniqlanganda.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

19. Ushbu Metodologiya Bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

20. Mazkur Reglament talablari bankning tarkibiy bo'linmalari, hamda hududiy BXM va BXOlar uchun majburiy hisoblanadi.

21. Mazkur Metodologiya talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

22. Bank xodimlari ushbu Metodologiya bo'yicha ish yuritayotganda korruptsiyaviy harakatlarni sodir qilishdan o'zini tiyishi lozim, jumladan:

korruptsion harakatlarni to'liq taqiqlashi va har qanday moddiy shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita) berishi va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi;

amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan Bankning korruptsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki hujjatlari talablariga amal qiladi;

jinoyat yoki huquqbuzarlik alomatlari borligi to'g'risida aniq faktlar yoki dalillar aniqlangan taqdirda, bu haqida o'rnatilgan tartibda huquqni muhofaza qilish organlariga xabar beradi.

23. Jinoyat yoki huquqbuzarlik alomatlari aniqlangan taqdirda, xodimlar bu haqda belgilangan tartibda vakolatli organlarga va Bankning tegishli tarkibiy bo'linmalariga xabar berishlari shart.

24. Bank xodimlari manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarda O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni talablariga rioya qilishlari shart.

25. Ushbu Metodologiya bilan tartibga solinmagan masalalar amaldagi qonunchilik hamda Bankning boshqa ichki qoidalariga muvofiq hal etiladi.

Kiritildi:

**Monitoring va nazorat
departamenti direktori**



S.R.Jumaniyozov